

O'ZBEK TILSHUNOSLIK TARIXIDA OT SO'Z TURKUMI TIPOLOGIYASI XUSUSIDA.

*Termiz davlat universiteti lingvistika(o'zbek tili)
II bosqich magistranti To'xliyeva Madina Soatmurot qizi
+99899 757 29 87*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilshunoslik tarixida ot so'z turkumining tipologiyasi hamdauning turlarga ajratilishi yoritib berildi.

Til haqidagi fanning shakllanishi, odatda, XIX asrning boshiga to'g'ri keladi, deb baholanadi. Biroq, tilshunoslikning eng asosiy, tub muammosi, jumladan, so'z turkumi va gap bo'lagi, tilning tabiatni, til belgisining ma'noga aloqadorligi, mantiqiy, grammatik va boshqa hodisa munosabati va hatto, til, lison va nutq munosabati, tilning sistemaviy xarakteri (sistema ekanligi, yaxlit strukturadan iborat ekanligi strukturasiz yaxlitlikning.Ya'ni tilning o'zi bo'lmasligi kabi) hamda unga yondashuvda ham doimo, qadimdan boshlab sistema sifatida yo'l tutilganligi, shuningdek, tilning kelib chiqishi masalasini ham qamrab olib baho beriladigan bo'lsa, tilshunoslik fanining shakllanishi, albatta, uzoq tarixga egaligi ma'lum bo'ladi. Sharqda eramizdan oldingi davrda, ya'ni III-II asrda Panining grammatika va grammatik kategoriylar haqida fikr yuritganligi ma'lumdir¹.

Hind tilshunosligida so'z to'rt guruhgaga ajratilgan: ot, fe'l, ko'makchi va yuklama. Bunda fe'l harakatni ifodalovchi, ot esa substansiya-ifodalovchi, yuklama va ko'makchi so'z o'rtasidagi munosabatni, shuningdek, insonning o'z fikriga munosabatini ifodalovchi hodisa sifatida berilgan. Tilshunoslik tarixida so'zga ko'pdan-ko'p ta'riflar berilgan, har bir tadqiqotchi so'zga o'zi chuqurroq shug'ullangan mezon nuqtai nazaridan kelib chiqib baho berishga harakat qilgan. Ammo hozirga qadar so'zga berilgan barcha ta'riflar, ushbu lingvistik birlikning mohiyatini to'laligicha qamrab olgan emas. Uning atrofidagi baho va munozaralar hamon tugagan emas.

Tilshunos olim S.Usmonov so'zga shunday ta'rif beradi: «So'z kollektiv a'zolari tomonidan bir xilda talaffuz qilinib, bir xilda idrok qilinadigan hamda biron predmet, hodisani bildiradigan yo ular haqidagi tovush birikmasi sifatida shakllangan simvoldir. Prof. Sh.Rahmatullayev so'z haqida shunday deydi: «So'z o'ta murakkab hodisa sifatida talqin qilinib, ayni vaqtda ham til birligi, ham nutq birligi bo'lishi

¹ Qilichev.I Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Buxoro.:Buxoro universiteti,1999.

ta'kidlanadi. Asli til birligi bilan nutq birligining teng kelib qolishi yordamchilarda, o'zgarmaydigan turkumlarda voqe bo'ladi.

Akademik A.Hojiyev shunday ta'rif beradi. So'z, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko'rinishi. O'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, ob'yektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan. Turi grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi.

Tilshunos O.S.Axmanova so'zga quyidagicha ta'rif beradi: So'z (glossa) ing. Word, fran. Mat, nem. Wort, isp. Palabra. 1. Voqyelikning ma'lum «sohasi» («qismi»)ning umumlashgan tarzdagi aksi sifatida fikr predmeti bilan bevosita munosabatga kirishga qodir bo'lgan va mana shu keyingisiga yo'nalgan gapni tashkil etadigan oxirgi chegaradir. 2. 1-nchi ma'nodan farqli ravishda gapning yuzaga chiqish imkoniyati bo'lgan va faqat sintaktik planda qaraladigan minimumidir².

A.Nurmonov, Sh.Iskandarovlar tilshunoslikda so'zning keng qamrovli, universal tushuncha ekanligini shunday ifodalaydilar: «An'anaga ko'ra, so'z atamasi leksik birlik bo'lgan leksemaga nisbatan ham, morfologik birlik bo'lgan so'z shaklga nisbatan ham qo'llaniladi. Shuning uchun ham ko'p adabiyotlarda lingvistik birlik bilan mantiqiy birlik solishtirilib, so'zning tushuncha ifodalashi, ana shu belgisi bilan hukm ifodalovchi gapdan farqlanishi va so'z birikmasi bilan umumiylilik hosil qilishi haqida gap boradi. Bunday holatlarda, tabiiyki, leksik birlik sanaluvchi leksema ma'nosida qo'llangan so'z atamasi haqida fikr yuritiladi. Odam so'zi borliqdagi «ongli faoliyat ko'rsatish va nutqiy faoliyat ishtirokchisi bo'lish imkoniga ega bo'lgan tik gavdali jonzot» tushunchasini ifodalashi bilan birga, «bosh kelishik, birlik shakldagi ot» ma'nosidir. Hozirgi tilshunoslikda birinchisi uchun leksema, leksik morfema. Ikkinchisi uchun ega so'z shakl atamalaridan foydalaniladi». Tabiiyki, tilning asosiy materiali so'z bo'lib, u turli ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. so'z orqali turmushning turli tomonlari, kishilik jamiyatining, insonning turmush tajribalari aks ettiriladi. Har bir so'zning ikki tomoni bordir: ichki tomoni va tashqi tomoni. Har bir so'z shu ikki tomonning birligidan iboratdir. Demak, so'z-nutqning mustaqil bo'lagi, u ma'no va shakllanish jihatidan bir butunlikka egadir; so'z semantik va grammatik butunlikdan iboratdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek qadim davrlardan buyon so'z va so'zlarni guruhlarga ajratish doimo olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Faylasuf Platon til yoki nutqni ikki qismga-ot (opota) va fe'lga (tema) ajratib, bir nima tasdiqlanadigan so'z ot deb hisoblanadi. Ega vazifasida qo'llangan so'z ot hisoblangan. Fe'l esa ot haqida nima tasdiqlanishini anglatadigan so'zdir. Fe'l deb aslida kesimga aytilgan. Bu prinsipga

² Qilichev.I Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Buxoro.:Buxoro universiteti,1999.

ko‘ra kesim vazifasida qo‘llangan sifat ham fe‘l hisoblanadi. Demak, so‘zlarni ot va fe‘lga ajratish aslida mantiqiy va sintaktik prinsipga asoslangan.

Aristotel so‘zlarni uch sinfga ajratadi. Bular: ot (lat. nomen), fe‘l (lat. Verbum-lug‘aviy ma’nosi, aslida, «Bayon qilish», «fikr», «mulohaza», keyinchalik mantiqiy kategoriya bo‘lgan «predikat», nihoyat, «fe‘l») va bog‘lovchi hamda yuklama (lat. conjunction). So‘ngi gruppaga olmoshlar, artikllar ham kiradi. Aristotel nutqning yuqorida ko‘rsatilgan tarkibiy qismlarini ta’riflashda morfologiyaga tomon siljiydi. Masaan, otga nimanidir ataydigan (nomlaydigan) so‘z, fe‘lga nimanidir atabgina qolmay, uning zamonini ham ko‘rsatadigan so‘z deb, bog‘lovchi va yuklamalarga esa nomlash vazifasini bajarmay, otlar va fe‘llar yonida qo‘llanadigan so‘z deb izoh beradi³.

Bu klassifikasiya keyinchalik arab filologiyasiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Kelishik haqidagi dastlabki fikrni biz Aristotelda ko‘ramiz. U turlanish, juslanish va so‘z yashash formalarini kelishik (gr.Ptosiv-tushish) deb nomlagan. Uningcha, kishi-kishilar, yurdi va yur kabilar turli kelishiklardir. Platon ham Aristotel ham nutqning besh qismini – fe‘l, bog‘lovchi, artikl, atoqli otlar, nihoyat, turdosh otlarni ajratganlar.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abdurahmonova N. Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning lingvistik ta‘minoti (sodda gaplarmisolida) -T.:www.google.com,2018.
2. Almamatov. T, Yadgarov Q., va Almamatova Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. - Toshkent.:Fan,2013.
3. Anderson J., Rosenfeld E. -Neurocomputing Foundations of Research, Cambridge.: MIT Press, 1998.
4. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. -Cambridge, Mass.: MIT Press, 1965.
5. Grishman R. Computational linguistics. -Cambridge University.: Press,1994.
6. G‘ulomov A. O‘zbek tili morfologiyasiga kirish. –
7. T.:Akademnashr,1953.
8. Qilichev.I Hozirgi o‘zbek adabiy tili -Buxoro.:Buxoro universiteti,1999.

³ Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. -T.:Akademnashr, 2011.